



DIGITAL TRANSFORMATION AND GENDER ROLES: THE ISSUE OF IDENTIFICATION IN THE POSTMODERN APPROACH

Khurshidbek Abduaizimov

Junior Researcher

the Institute for Family and Gender Scientific Studies

xurshidbekabduaizimov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digitalisation, gender divide, postmodernism, STEM, digital inclusion.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article analyses the impact of digital transformation on gender roles and identity in Uzbekistan through a postmodern lens. Based on empirical data and international indices, it identifies gender gaps and compares them with Kazakhstan's experience.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA GENDER ROLLARI: POSTMODERN YONDASHUVDA IDENTIFIKATSIYA MASALASI

Xurshidbek Abduaizimov

Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

xurshidbekabduaizimov@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, gender tafovuti, postmodernizm, STEM, raqamli inklyuziya.

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning gender rollari va identifikatsiyaga ta'sirini postmodern yondashuv asosida tahlil qiladi. Empirik ma'lumotlar va xalqaro indekslar asosida gender tafovutlari ochib berilib, Qozog'iston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ГЕНДЕРНЫЕ РОЛИ: ПРОБЛЕМА ИДЕНТИФИКАЦИИ В ПОСТМОДЕРНИСТСКОМ ПОДХОДЕ

Хуришидбек Абдуазимов

Младший научный сотрудник

Института научных исследований семьи и гендеры

xurshidbekabduazimov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цифровизация, гендерный разрыв, постмодернизм, STEM, цифровая инклузия.

Аннотация: Статья анализирует влияние цифровой трансформации на гендерные роли и идентичность в Узбекистане с позиций постмодернизма. На основе эмпирических данных и международных индексов выявляются гендерные разрывы, проводится сравнение с опытом Казахстана. и усилению кибербезопасности.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jahbalariga chuqr kirib bormoqda. Raqamlashtirish bu iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va boshqaruv sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish jarayoni bo‘lib, u jamiyatda kommunikatsiya, mehnat va ta’lim ko‘rinishlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy rollarga, xususan gender rollariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini kuzatishimiz mumkin. An’anaviy jamiyatlarda asrlar davomida erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari nisbatan barqaror bo‘lib kelgan bo‘lsa, raqamli davrda ushbu rollar qayta ko‘rib chiqilmoqda va o‘zgarmoqda. Postmodernizm sharoitida ya’ni qadriyatlar va identifikatsiya masalalari turlicha talqin qilinayotgan bir davrda raqamli transformatsiya jarayonida shaxslar o‘zlarini qanday identifikatsiya qilishi va jamiyatdagi gender rollarining qayta shakllanishi dolzarb masalaga aylandi.

Tadqiqotlar dunyoda ayollarning raqamli imkoniyatlardan foydalana olish darajasi erkaklarga nisbatan past ekani kuzatiladi. Bunday tafovut raqamli jamiyatda ayollar imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelib, ularning rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, jumladan BMTning ayollar tuzilmasi raqamli jamiyatda ayollarning teng va to‘laqonli ishtirokini ta’minlashni XXI asrda ayollar huquqlarini ro‘yobga chiqarish hamda 2030-yilgacha global gender tenglik va ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga erishishning ajralmas qismi sifatida ko‘rmoqda .

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron hukumat va onlayn xizmatlarni keng joriy etish bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda (masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi). Shu bilan birga, gender tengligini ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi hamda 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiya doirasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, jumladan ularning zamонавиу texnologiyalar va AKT sohalarda to‘laqonli

ishtirokini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, raqamli davrda gender rollari qanday o'zgarayotgani, postmodern yondashuvda identifikatsiya masalalari qanday namoyon bo'layotgani ilmiy jihatdan tadqiq etilishi lozim bo'lgan mavzudir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Birinchidan, nazariy adabiyotlar tahlili usuli orqali mavzuga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Xususan, postmodernizm va gender nazariyasiga oid yetakchi nazariyalar tahlil qilindi. Judith Butlerning gender performativligi nazariyasi, Donna Harawayning kiborg haqidagi postmodern feminist g'oyalari hamda Zygmunt Baumannning "suyuqlashgan zamonaviylik" konsepsiysi mazkur maqola uchun nazariy asos qilib olindi. Ikkinchidan, empirik ma'lumotlar tahlili amalga oshirilib, asosan O'zbekiston bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar va tadqiqot hisobotlaridan foydalanildi. Bu ma'lumotlar yordamida mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonida erkaklar va ayollar o'rtasidagi raqamli tafovutlar hamda gender rollarining o'zgarish tendensiyalari tahlil qilindi. Uchinchidan, qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekistonning mentalitet va ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi jihatidan o'xhash bo'lgan xorijiy davlat Qozog'iston misolida raqamli transformatsiya va gender masalalari solishtirildi. Qozog'iston tajribasi orqali raqamli texnologiyalarni joriy etishda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatlar va tashabbuslar ko'rsatib berildi.

Asosiy qism. Raqamli transformatsiya davrida gender va identifikatsiya masalalari tobora murakkablashib borayotganini sezmaslik imkonsiz. Jamiyatda an'anaviy erkak va ayol rollari endi ilgari bo'lganidek qat'iy va barqaror emas. Ular o'z shaklini doimiy o'zgartirmoqda, qayta talqin etilmoqda. Ayrim hollarda mutlaqo yangicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bunday jarayonlarni tushuntirishda postmodern yondashuv nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Postmodernizmda belgilar, ramzlar va tasvirlar tobora moddiy voqelikdan ajralib bormoqda. Jean Baudrillardning stimulyatsiya konsepsiyasiga ko'ra, postmodern davrda mavjud tasvir va belgilarning asl voqelik bilan aloqasi uziladi, ular o'z asliyatidan uzilgan "nusxalar"ga aylanadi. Bunday jamiyatda haqiqatning o'zi emas, balki uning o'rniga yaratilgan belgilar tizimi ijtimoiyashuvning asosiy manbaiga aylanishi mumkin.

Ushbu nazariy konsepsiyanı raqamli muhitga, xususan ijtimoiy tarmoqlarga tadbiq qilgan holda aytish mumkinki, zamonaviy inson, shu jumladan o'zbek jamiyatidagi erkak va ayollar, o'zlarining gender va oilaviy identifikatsiyasini ko'pincha real tajribaga emas, balki ommaviy axborot vositalarida ishlab chiqilgan idealizatsiyalangan obrazlarga asoslangan holda ifodalaydilar. Instagram, YouTube, TikTok kabi platformalarda "baxtli oila", "zamonaviy ona", "ideal ayol" yoki "erkak" kabi obrazlar ko'pincha hayotiy haqiqat emas, balki auditoriya kutayotgan estetika, tendensiyalarga moslab yaratilgan ifodalar bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda “baxtli oila” timsoli ko‘pincha uyg‘un, farovon, silliq qilingan estetika orqali namoyon qilinadi. Bu esa real hayotdagi murakkabliklar, nizolar, gender rollar to‘qnashuvi, iqtisodiy cheklolvar kabi holatlarni soxtalashtiradi yoki butunlay inkor etadi. Shu bilan birga, bu “stimulyatsiyalangan” identifikatsiyalar zamonaviy ayolning ideal qiyofasi, erkakning “mas’ul rahbar” timsoli ijtimoiy me’yorlarni qayta ishlab chiqaradi va shaxslarni ana shu tasvirlarga moslashishga undaydi. Natijada, gender va oilaviy identifikatsiyalar endilikda tanlangan, ijro etilgan va algoritmik estetika orqali shakllangan holga keladi.

Bu holat Butlerning performativlik nazariyasi bilan hamohang bo‘lib, genderni doimiy “rol ijrosi” sifatida talqin qiladi. Ammo Baudrillard yondashuvi bu jarayonni axborotning ko‘pligi sharoitida “asl haqiqat” tushunchasining o‘zi yo‘qolib borayotgan holatini ko‘rsatadi. Shu bois, raqamli transformatsiya sharoitida gender va oilaviy identifikatsiyalar endi nafaqat ijtimoiy-madaniy omillarning mevasidir, balki algoritmlar tomonidan boshqariladigan raqamli makonga aylangan.

Donna Haraway esa texnologik asrda identifikatsiya o‘zgaruvchan va plastiklikka aylanib borayotganini ta’kidlaydi. U “Kiborg manifesti”da inson va mashina o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolib borayotganini, an’anaviy “erkak-ayol”, “tabiiy-sun’iy” kabi bir-biriga qarama-qarshi tamoyillar barqarorligini yo‘qotayotganini ta’kidlaydi. Haraway fikricha, texnologiyalar orqali insonlar an’anaviy jinsiy identifikatsiyadan xoli, moslashuvchan yangi o‘zliklarni yaratish imkoniga ega bo‘ldilar. Harawayning kiborg konsepsiysi ayniqsa bugungi texnologiyalar bilan integratsiyalashgan jamiyatda o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Masalan, Telegram, TikTok, Instagram kabi platformalarda odamlar o‘zlarini an’anaviy gender tasnifidan mustaqil tarzda ifodalay olishadi. Kimdir o‘zining jinsiy identitetini yashiradi, kimdir uni yangidan kashf etadi.

Zygmunt Bauman esa “suyuqlashgan zamonaviylik” konsepsiyasida identifikatsiya doimiy o‘zgarishdagi, beqaror jarayonga aylanganini ta’kidlaydi. An’anaviy tayanchlar oila, kasb, jamiyat suyuqlashar ekan, gender rollari ham ilgari qat’iy bo‘lgan shaklini yo‘qotib, moslashuvchan va kontekstga bog‘liq holga kelmoqda. Bauman fikricha, “suyuqlashgan jamiyatda identifikatsiya doimiy ravishda qayta qurib borilishi kerak. Unga ko‘ra, hozirgi jamiyatda shaxsiy o‘zlik nihoyasiga yetgan, barqarorlikka erishgan holat emas, balki doimiy o‘zgaruvchandir. Har bir kishi hayotining turli bosqichlarida, turli jabhalarda o‘zining kimligini qaytadan aniqlashga harakat qiladi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya yo‘lida jadal qadam tashlab kelmoqda. Davlat tomonidan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, iqtisodiyot va davlat boshqaruviga zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq etish ishlari davom etmoqda. Natijada internet va mobil aloqa infratuzilmasi kengayib, raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlariga, jumladan ayollarga ham yangi

imkoniyatlar eshigini ochmoqda. BMT Taraqqiyot Dasturining 2022-yilgi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollarning 83% qismi internetdan har kuni foydalanmoqda . Aholining aksariyati internetga asosan uyida, mobil qurilmalar orqali ulanadi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaga ulanish imkoniyati shaharlik va qishloqlik aholida bir xil emasligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ayrim chekka hududlarda aholining faqat kichik qismi uyida kabel internetga ega. Qishloqlarda internet asosan mobil aloqa orqali kirib borayotgan bo‘lib, bu ham aloqa sifati, tezligi kabi muayyan cheklovlar tug‘diradi .

Umuman olganda, mamlakat bo‘yicha ayollarning smartfonlardan foydalanish darajasi erkaklarnikiga nisbatan hatto biroz yuqoriyoq ekanligi e’tiborga molik. Bu ko‘p mamlakatlarda kuzatiladigan tendensiyadan farq qiladi. Dunyo miqyosida aksariyat davlatlarda erkaklar axborot texnologiyalariga ayollarga nisbatan ko‘proq foydalanishi ma’lum. O‘zbekistonda esa ayollarning mobil texnologiyalarga qiziqishi va ulardan foydalanuvchanligi yuqori ekani ko‘rinib turibdi. Bu, shubhasiz, ijobiy hol bo‘lib, ayollarning raqamli transformatsiyaga intilishi mavjudligini isbotlaydi.

Biroq raqamli texnologiyalarni egalilk qilish borasida gender tafovuti mavjud. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, O‘zbekistonda ayollarning raqamli ko‘nikmalari darajasi erkaklarga nisbatan sezilarli darajada past. Ayollarning raqamli savodxonligi erkaklardan 24% ga past deb baholanmoqda. Xususan, kompyuter va smartfondan asosiy foydalanish ko‘nikmalari bo‘yicha farq 23%, standart dasturlar va raqamli xizmatlardan foydalanish bo‘yicha 21%, murakkab texnik ko‘nikmalar bo‘yicha esa farq 26% ni tashkil etadi . Bu raqamlar ayollar va erkaklar o‘rtasida “raqamli tafovut” yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Tafovut faqat gender kesimida emas, balki avlodlar kesimida ham mavjud. Yosh ayollarning (35 yoshgacha) raqamli savodxonligi kattaroq yoshdagi ayollarga qaraganda yuqoriyoq. Masalan, 35 yoshdan oshgan ayollar raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha 35 yoshdan kichik ayollardan taxminan 10% past ekani aniqlangan.

Shuningdek, e’tiborga molik jihat, O‘zbekistonda erkaklar ham, ayollar ham odatda turmush qurgach raqamli malakalarini oshirishni deyarli to‘xtatishadi. Bu holat turmush qurish bilan bog‘liq oilaviy majburiyatlar, vaqt taqchilligi yoki ijtimoiy rollarning o‘zgarishi bilan izohlanishi mumkin. Natijada, ko‘plab ayollar oilali hayotga o‘tish davrida raqamli yangiliklardan chetda qolib ketish xavfi paydo bo‘ladi.

O‘zbek jamiyatidagi mavjud ijtimoiy normalar va patriarxal qarashlar ham ayollarning ishtirokiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy oila tuzilmasida erkak kishi ko‘pincha ayolning ta’lim olishi, ish faoliyati bilan shug‘ullanishi yoki hatto internetdan foydalanishi borasida qaror beruvchi asosiy shaxs sifatida ko‘riladi. BMT o‘tkazgan tadqiqotda qayd etilishicha, O‘zbekistonda “erkaklar ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligiga doir qarorlarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi” . Ya’ni, qizlarning qaysi universitetda o‘qishi, turmush qurgan ayolning ishlashi yoki

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi kabi masalalar ko‘pincha otasi yoki turmush o‘rtog‘i roziligi bilan hal bo‘ladi. Bu holat ayrim hollarda ayollarning raqamli texnologiyalardan foydalanishiga to‘siq bo‘lishi mumkin. Masalan, chekka hududlarda olib borilgan intervyu va so‘rovlar davomida ba’zi ayollar “oilam menga internetdan foydalanishga ruxsat bermaydi” deya arz qilganlari qayd etilgan . Demak, raqamli transformatsiya jarayonida gender rollarining o‘zgarishi bevosita jamiyatdagi mentalitet va gender stereotiplariga borib taqaladi. Agar an’anaviy qarashlar o‘zgarmasa, yangi texnologiyalar berayotgan imkoniyatlardan ayollar to‘liq foydalana olmasligi mumkin. Shu sababli, O‘zbekistonda raqamli tenglikka erishish nafaqat texnik infratuzilmani yaxshilash va ko‘nikmalarni oshirish, balki jamiyat ongidagi gender stereotiplarini ham o‘zgartirishni talab etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ayollarni raqamli sektorga jalb qilish va ularning bu sohadagi faolligini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar boshlangan. Xususan, AKT sohasida qizlar o‘rtasida tanlovlар, treninglar, dasturlash to‘garaklari tashkil etilmoqda. Jumladan, IT-parklar huzurida “Girls in Tech” kabi loyihalar yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” dasturlari doirasida ham ayollarni kasbhunarga, jumladan raqamli ko‘nikmalarga o‘qitish choralar ko‘rilmoqda. Shuningdek, elektron hukumat va onlayn xizmatlardan foydalanishni kengaytirish jarayonida ayollarga alohida e’tibor qaratilib, masofaviy ta’lim olish hamda uyda o‘tirib turib turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu kabi tashabbuslar ayollarning jamiyatda yangi rollarni egallashi, masofaviy ishslash, onlayn tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, IT sohasida yetakchiga aylanish uchun zamin yaratadi. “O‘zbek ayoli” obrazini endilikda nafaqat an’anaviy oilada, balki raqamli platformalarda ham ko‘rishimiz mumkin. Bloger, tadbirkor, dasturchi kabi yangi rollarda namoyon bo‘layotgan opa-singillarimiz jamiyatimizda asta-sekinlik bilan qabul qilinmoqda. Bu, albatta, quvonarli jarayon bo‘lsa-da, hali oldinda ancha ishlar turibdi. Raqamli transformatsiya sharoitida gender tenglikka erishish va ayollarning to‘laqonli ishtirokini ta’minlash milliy rivojlanishning ajralmas qismidir.

Raqamli transformatsiya jarayonida gender masalalariga doir qiyinchilik va yutuqlar O‘zbekistonga o‘xshash mentalitet va tajribaga ega boshqa mamlakatlarda ham kuzatilmoqda. Qo‘sni Qozog‘iston misolida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Qozog‘iston so‘nggi yillarda gender tenglikni yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Jahon Iqtisodiy Forumining Global Gender Tafovut hisobotida mamlakat 65-o‘ringa ko‘tarilib, oxirgi o‘n yillikda barqaror progressga erishgan .

Raqamli sektorda ham Qozog‘iston ilg‘or qadamlar tashlamoqda. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va internet infratuzilmasini rivojlanishiga katta sarmoyalar yo‘naltirildi. 2022-yilda BMTning Elektron hukumat rivojlanishi indeksida Qozog‘iston 28-o‘rinni egalladi . Bu juda

yaxshi natija bo‘lib, Qozog‘iston raqamli infratuzilma va imkoniyatlardan foydalanishda ayollarni keng jalg eta olganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Qozog‘istonda ham raqamli tafovutlar mavjud ekanligini aytib o‘tish joiz. Aholining 38% yashaydigan qishloq joylarda internet qamrovi hali ham shaharga nisbatan sust. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotda ayollarning to‘liq ishtirokiga to‘sinqlik qilayotgan ijtimoiy omillar ham yo‘q emas. Jumladan, Qozog‘istonda yuqori ma’lumotli ayollar ulushi katta bo‘lsada, STEM yo‘nalishlarida ayollarning ulushi atigi 25% ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich ayollarning yuqori maoshli va texnologik kasblarda kam ekanligini bildiradi. Qozog‘istonda ham, xuddi O‘zbekistondagidek, ayollar orasida o‘ziga bo‘lgan ishonch pastligi muammosi kuzatiladi. Ya’ni ko‘plab ayollar texnik sohalardagi qobiliyatiga baho berishda o‘ziga past ishonch bildirishadi va shu sababli bu sohaga kamroq kiradilar.

Qozog‘istonda raqamli transformatsiya jarayonida gender tafovutni kamaytirish va ayollarni rag‘batlantirish uchun bir qator innovatsion tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, 2021-yilda BMT Taraqqiyot Dasturining Qozog‘istondagi Accelerator Lab laboratoriysi tomonidan olis mintaqalardagi yosh ayollar uchun “Alga!” nomli ikki haftalik raqamli ko‘nikmalar va liderlik kurslari tashkil etildi. Satpayev va Jezkazg‘an shaharlari qizlari ishtirok etgan ushbu dasturda ularga grafik dizayn, ijtimoiy media marketingi, AKT bo‘yicha asosiy bilimlar, hatto sun’iy intellekt va liderlikka oid treninglar ham o‘tkazildi. Dastur davomida qatnashchilar Qozog‘istonda AKT sohasida muvaffaqiyat qozongan ayol mutaxassislar bilan onlayn uchrashuvlar qilib, ularning hayotiy misollaridan ilhom oldilar. Natijada qizlar orasida o‘z kelajagini raqamli iqtisodiyot bilan bog‘lashga qiziqish ortgani, o‘ziga ishonch paydo bo‘lgani kuzatildi. Bu kabi lokal tashabbuslar Qozog‘iston jamiyatida ayollarning raqamli sohadagi faolligini oshirish va ularni texnologiya sohasiga jalg etishda ijobiy samara bermoqda.

Xulosa. Raqamli transformatsiya va gender rollari o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayon bo‘lib, globallashuv va postmodernlik davrida bu bog‘liqlik yanada murakkablashmoqda. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar bir tarafdan ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, masofaviy ta’lim olish, onlayn tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, axborot manbalariga erkin kirish imkoniyati yaratilmoqda. Boshqa tomonidan esa, agar raqamli tenglikka erishilmasa, mavjud gender tafovutlar yangi shaklda davom etishi va hatto chuqlashishiga olib kelishi mumkin.

Postmodern nazariyasi vakillari ta’kidlaganidek, gender identifikatsiyasi doimiy ravishda o‘zgaradigan jarayon bo‘lib, jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’sirida u qayta shakllanaveradi. Demak, raqamli davrda gender rollarini qat’iy belgilangan norma sifatida emas, balki qayta talqin etiluvchi ijtimoiy konstrukt sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston misolidagi o‘rganishlar ayollar raqamli texnologiyalardan foydalanishda katta qiziqish va salohiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, raqamlashtirishda va faoliyatga jalb etilish borasida gender tafovutlari mavjudligini ham aytib o‘tish joiz. Ayollar raqamli ko‘nikmalarda erkaklardan orqada ekani, ayniqsa yoshi kattaroq va oilali ayollar orasida bu tafovut sezilarli darajada ekanligi ma’lum.

Ushbu to‘sinqinliklarni bartaraf etish uchun keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati bor. Xususan:

- Qishloq hududlarda internet qamrovini kengaytirish va sifatini yaxshilash (shunda olis hududlardagi ayollar ham onlayn imkoniyatlardan foydalana oladi);

- Qizlarni texnika va AKT sohalariga kengroq jalb etish uchun ta’lim tizimida maxsus dasturlar joriy etish, ular orasida STEM bo‘yicha rol modellarini (muvaffaqiyatli ayol mutaxassislarni) targ‘ib qilish;

- Ayollar uchun raqamli ko‘nikmalarni oshirish va IT sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan trening va grant dasturlarini amalga oshirish;

- Onlayn makonda ayollarning xavfsizligini ta’minlash. Kiberzo‘ravonlikka qarshi qonunchilikni takomillashtirish va huquqni muhofaza qilish organlari salohiyatini oshirish, ayollarga nisbatan nafrat so‘zлari va tazyiqlarning oldini olish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli davrda gender rollari va identifikatsiyasi masalasi juda murakkab va ko‘p qirralari hodisadir. Texnologiyalar kirib kelar ekan, biz ilgari mustahkam deb hisoblangan “erkak” va “ayol” rollarining ham qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Bu jarayonda asosiy maqsad jamiyatdagi barcha insonlar, jinsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, raqamli taraqqiyot mevalaridan teng foydalana olishi va o‘z salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishi uchun imkon yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “2030- yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son Qarori <https://lex.uz/ru/docs/5466673>
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-4494849?ONDATE2=12.04.2023&action=compare>.
3. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. United Nations Development Programme. (2022). Gender digital divide assessment: Uzbekistan. UNDP. <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023>

5. UN Women. (2022). Progress on the sustainable development goals: The gender snapshot 2022. <https://www.unwomen.org/sites/default/files/2022-09/Progress-on-the-Sustainable-Development-Goals-The-Gender-Snapshot-2022-en.pdf>
6. World Economic Forum. (2023). Global gender gap report 2023. Geneva: World Economic Forum. <https://www.weforum.org/reports/global-gender-gap-report-2023/>
7. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Kazakhstan: Strengthening gender equality through reforms and digital initiatives. UNDP Kazakhstan. <https://www.undp.org/kazakhstan/gender-equality>
8. Baudrillard, J. (1994). *Simulacra and simulation*. University of Michigan Press.
9. Butler, J. (1990). *Gender trouble: Feminism and the subversion of identity*. New York: Routledge.
10. Haraway, D. (1991). *Simians, cyborgs, and women: The reinvention of nature*. New York: Routledge.
11. Bauman, Z. (2000). *Liquid modernity*. Cambridge: Polity Press.